

## “AXBOROT TEXNOLOGIYADA VA TA'LIMDA INGLIZ TILIDA QISQARTMALARNI O'ZBEK TILIDA TARJIMA VA TAHLILI”

*Surxondaryo viloyati Termiz shahri  
Termiz iqtisodiyot va servis universiteti magistr talabasi  
Ismatov Islombek Sharofjon o'g'li*

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada iqtisodiyot oliy o'quv yurtlarining davlat ta'lim standartlari va "Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat" mazmuni haqida qisqacha ma'lumot beriladi va Oliy ta'limda zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llashning ahamiyati, Oliy ta'limda pedagogik texnologiya asoslari, uning tarkibi, tuzilishi, vazifalari va unga bo'lgan zamonaviy yondashuvlar hamda undan amalda foydalanishga doir tavsiyalar bayon qilingan.

**Kalit so'zlar:** "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun, "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi", ta'lim-tarbiya, kasb-hunar, ijtimoiy-iqtisodiy, ijodiy faoliyat, moddiy, amaliy, ijtimoiy, ma'naviy, axloq, san'at, siyosat, falsafa, fan, differentsiyalash.

Ko'pgina yangi tushunchalar ingliz va o'zbek tillarida iboralar yoki qo'shma so'zlar yordamida ifodalanadi. Buning sababi shundaki bunday murakkab so'zlar ma'lum tushunchani to'liqlik va aniqlik bilan ifodalash imkonini beradi. Ammo ko'p va iboralar murakkabdir. Shu sababli ularni qisqartirishga ehtiyoj seziladi. Ba'zida bu atamaning faqat bitta asosiy komponent shaklida qisqartirishdan foydalanishga to'g'ri keladi yoki har xil turdagi qisqartmalar ishlatiladi, bu esa vaqtni tejash imkonini beradi.

Bugungi kunda obyektlar, tushunchalar, leksik qatlam nomlarining alohida turlari paydo bo'lyapti. So'z boyligi o'z navbatida so'z yasash jarayonlari hisobiga muntazam ravishda ortib boradi va to'ldiriladi. Bu esa nutq talablari natijasida abbreviaturalarning katta qatlami paydo bo'lishiga sabab bo'ladi. Qisqartma so'zlar qanday so'zlar? Qisqartmalar deganda yozma so'z yoki iboraning qisqartirilgan shaklini tushunamiz. Qisqartmalar joy va vaqtni tejash, so'z va iboralarni takrorlamaslik uchun ishlatilishi mumkin.

Qisqartmalar so'zlarning ikkinchi nomi bo'lib, ushbu tushunchaning asosiy o'g'zaki belgilari bilan birga tilda ishlaydi. Tilshunoslar qisqartmalarni ikkita katta guruhlariga ajratadilar: harfli qisqartmalar va qisqartirilgan so'zlar. Ingliz tilshunosligida qisqartmalar so'z yasash usuli sifatida qabul qilish yondashuvi keng tarqalgan bo'lsada, o'zbek tilshunosligida boshqacha nuqtai nazar mavjud. Ya'ni o'zbek tilshunosligida qisqartma so'zlar yangi ma'no bermaydi va yangi so'z yasamaydi. Qisqartma so'zlar ma'no o'zgartirmasdan bosh harflari yoki bosh bo'g'inlari olinadi.

Aslida, tilda soʻzlar leksik birliklar qisqartiriladi va ular aksariyat holatlarda ot soʻz turkumi doirasida amalga oshiradi. Leksik qatlamdagi terminlarning qisqartirilishi terminning aniqligi, qisqaligi va loʻndaligini unga qoʻyiladigan talablardan biri sifatida taʼkidlanadi. Ingliz tilidagi (initial) initsial abbreviaturalar (lotincha <<ignition>>-birinchi, ilk soʻzidan) tarkibli qoʻshma otlarning birinchi harflaridan tuziladi va qisqartmalarning har biri komponenti alohida harf tarzida talaffuz qilinadi. Soloshtirilayotgan tillardagi bosh harflar yigʻindisidan tashkil topgan taʼlimga oid terminlari initsial abbreviaturalarining har bir harfi alohida talaffuz qilinadi. Bu holatda ularning akronim emas, balki initsial abbreviatura shaklida ekanligini koʻrsatadi. Chunki ingliz tilidagi har bir harfning nomi mavjud boʻlib, initsial taʼlimga oid terminlari talaffuzida harflarning nomlari aytilishi qabul qilingan.

Oʻzbek tiliga ham oʻzlashgan va ommalashgan qisqartma soʻzlar aynan oʻsha shaklda talaffuz qilinadi. Masalan, ingliz tilidagi IELTS- international english languages testing system; IP-internet protocol; IQ-intelligence quotient; ID-identification; WWW- world wide web; IT-information technology; CV-curriculum vitae.

IELTS qisqartmasi Xalqaro ingliz tili test tizimi – ingliz tilini bilish darajasini aniqlash testidir. Dunyo miqyosida yiliga 4 milliondan ortiq imtihon topshiruvchi imtihon topshiradi, bu IELTS imtihonini oliy taʼlim va global migratsiya uchun dunyodagi eng mashhur ingliz tilini bilish imtihoniga aylantiradi.

Internet protokoli (IP) manzili internetga ulangan har bir qurilmaga tayinlangan noyob identifikatsiya raqamidir. IP-manzil taʼrifi - bu aloqa qilish uchun internetdan foydalanadigan qurilmalarga tayinlangan raqamli belgi. Internet orqali yoki mahalliy tarmoqlar orqali muloqot qiladigan kompyuterlar ma'lumotni IP manzillari yordamida ma'lum bir joyga almashadilar.

Aql-idrok koeffitsienti ( IQ- intelligence quotient ) inson aqlini baholash uchun moʻljallangan standartlashtirilgan testlar yoki subtestlar toʻplamidan olingan umumiy balldir.

"ID" "identification" degan ma'noni anglatadi. Hozirgi kunda bu qisqartma shaxsni tasdiqlovchi hujjat, haydovchilik guvohnomasi yoki pasport kabi shaxsning shaxsini tasdiqlash uchun foydalaniladigan hujjat sifatida ishlatilyapti.

Butunjahon oʻrgimchak toʻri (WWW) butun Internet boʻylab hujjatlar va boshqa veb-resurslarni kirishga imkon beradigan axborot tizimidir. Butunjahon oʻrgimchak toʻri jahondagi hukmron dasturiy platformaga aylandi. U milliardlab odamlar uchun Internetga kirishda foydalaniladigan asosiy vosita hisoblanadi.

Axborot texnologiyalari (IT) - bu aloqa tarmoqlarini qurish, ma'lumotlar va ma'lumotlarni himoya qilish va kompyuter muammolarini bartaraf etish kabi funksiyalarni oʻz ichiga olgan keng professional kategoriya.

Curriculum vitae (CV)- Ingliz tilida o'quv dasturi (lotincha "hayot kursi", ko'pincha CV ga qisqartiriladi) shaxsning martaba, malakasi va ma'lumoti haqida yozma xulosa. Bu Shimoliy Amerika va Britaniya inglizlarida eng keng tarqalgan qo'llanishdir. Shimoliy Amerikada (lekin boshqa joylarda emas) rezyume (shuningdek, rezyume sifatida yozilgan) atamasi qisqacha martaba xulosasi ma'nosida CVning umumiy sinonimi hisoblanadi.

Minglab qisqartmalar ingliz va o'zbek tilida uchraydi. Asosan qisqartmalar radio va televideniya va ayniqsa gazeta nashrlarida uchraydi. Bu qisqartirish yo'li bilan nafaqat jurnalistlarning joyni tejash istagi, balki nashr etilgan materialga o'quvchi e'tiborini jalb qilish istagi bilan ham ifodalanadi.

O'zining mustaqil ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish yo'lini tanlab olgan O'zbekiston Respublikasi ta'lim sohasini ham sobit qadamlik bilan isloh qilib bormoqda. Ayniqsa, "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" qabul qilingach, bu boradagi ishlar keng ko'lamga erishdi. Ushbu hujjatlarning talablari asosida bilim va kasb-hunar egallashga bo'lgan e'tibor kuchayib ketdi. Shu tufayli ta'lim-tarbiya tizimiga yangicha ilmiy-uslubiy yondashuvlar kirib kela boshladi. Bu yondashuvlar, o'z navbatida, o'quv jarayonining turli tashkiliy va metodik jamg'amlarida muayyan ijobiy o'zgarishlarni sodir etadi, albatta. Ularning ko'pchiligi pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat bilan uzviy bog'liq o'zgarishlardir. O'quv faoliyati - bu keng ma'noda inson faoliyatining muayyan maqsadlar yo'nalishida namoyon bo'lishidir. Bu faoliyat faqat insoniyat jamiyatida amalda oshirilishi sababli, u nafaqat har bir insonning, balki butun jamiyatning manfaatlari va maqsadlariga xizmat qiladi.

O'zbekiston Respublikasida amal qilayotgan yagona va uzluksiz ta'lim tizimini tashkil etuvchi 7 ta ta'lim turi-maktabgacha ta'lim, umumiy o'rta ta'lim, o'rta maxsus, kasb-hunarta'limi, oliya ta'lim, oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim, kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish ta'limi, maktabdan tashqari ta'lim kabilar orasida oliy ta'lim turi malakali mutaxassislar va xalq xo'jaligi hamda jamiyat hayotining turli jabhalarida xizmat qiluvchi kadrlar tayyorlashning samarali "o'chog'i" sifatida alohida o'rin egallaydi. Shuning uchun ham bu ta'lim turiga alohida va jiddiy e'tibor berilishi hayotiy zaruratimiz darajasiga ko'tarilgan.

Ta'lim mazmunini chuqurlashtirish, ta'limning amaliy tamoyillarini takomillashtirish, ta'lim jarayonlarini intensivlashtirish, ta'lim texnologiyalarini mukammallashtirish, ta'lim va tarbiyaning birligini kuchaytirish, xususan, ushbu ta'lim turining mazmuniga nafaqat bilim, ko'nikma va malaka, balki umuminsoniy madaniyatni tashkil qiluvchi - ijodiy faoliyat tajribasi, atrof-muhitga nisbatan ijobiy munosabatlarni ham kiritish g'oyasi kun tartibiga ko'ndalang qilib qo'yildi.

Bunday ulkan vazifalarning maqsadga muvofiq tarzda bajarilishi ko'pgina omillarga bog'liqdir. Ularni ijtimoiy hayolning quyidagi komponentlari ro'yobga chiqarishi mumkin:

- faoliyat turlari (moddiy, amaliy, ijtimoiy, ma'naviy);
- ijtimoiy ong shakllari (axloq, san'at, siyosat, falsafa, fan va boshqalar);
- ijtimoiy munosabatlar tizimi (moddiy va mafkuraviy);
- moddiy, ijtimoiy va tabiiy borliq (keyingi avlodlarga meros qilib qoldirilgan boyliklar).

Ta'lim mazmuni. Ta'limning komponentlari, tarkibi, vazifalari haqida so'z ketganda dalillar bilan qonuniyatlar, yaqqollik bilan mavhumlik, bilimlar bilan haqiqatni mullstaqil bilish metodlari qo'lashidagi maqbul keladigall munosabatlarni aniqlash zarur. "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"da ta'kidlanganidek, "Zamonaviy iqtisodiyot, fan, texnika va texnologiyalarni rivojlantirish asosida kadrlar tayyorlashning takomillashgan tizimini yaratishmamlakatni taraqqiy ettirishning eng muhim sharti hisoblanadi. Tizimning amal qilishi kadrlarning istiqbolga mo'ljallangan vazifalarini hisobga olish va hal etish qobiliyatiga, Yllksak umllmiy va kasbiy madaniyatga, ijodiy va ijtimoiy faollikka, ijtimoiy-siyosiy hayotda mustaqil ravishda yo'nalish ola bilish mahoratiga ega bo'lgan yangi avlodni shakllantirishni ta'minlaydi".

"Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" umumiy madaniyatni shakllantirish, jamiyatdagi hayotga moslashtirish, kasb-korga va ta'limga oid dasturlarni ongli ravishda tanlash hamda keyinchalik ro'yobga chiqarish uchun ijtimoiy-iqtisodiy, huquqiy, tashkiliy, psixologikpedagogik va boshqa shart-sharoitlarni yaratishni, oila va jamiyat, davlat oldidagi o'z mas'uliyatini anglovchi barkamol insonni tarbiyalashni nazarda tutadi.

Oliy ta'lim tizimida faoliyat ko'rsatayotgan o'qituvchi zamonaviy pedagogik texnologiyalar, ta'lim-tarbiya jarayonini faollashtirish usullari va o'qitiladigan fanlar bo'yicha sifatli bilim, ko'nikma va malakalarni hosil qilishni ta'minlovchi pedagogik usullarni qo'llay bilishi lozim. U zamonaviy pedagogik texnologiyalarning mohiyati, maqsadi va vazifalarini o'rganib chiqib, ular haqida ilmiy asoslangan ma'lumotlar, amaliy yo'llanmalar ishlab chiqishi, ilg'or pedagogik va axborot texnologiyalarini o'zlashtirganidan so'ng, uni ta'lim tizimiga joriy eta olishi kerak. Bugungi kunda ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar jarayoni, jamiyatning tez o'zgarib borayotgan turmush sharoiti, ta'lim tizimiga ta'sirchanlik va tezkorlik xossalarining berilishini, ya'ni ijtimoiy va iqtisodiy taraqqiyot talablariga javob berish, shaxs qobiliyati va iste'dodini hisobga olish imkoniyat va shart-sharoitlarini yaratishni taqozo etadi.

O'quv-tarbiya dasturlarining ta'sirchanligi va tezkorligini ta'minlash ta'lim jarayonini differensiatsiyalash muammosi bilan uzviy bog'liq. Hozirgi sharoitda, so'zda emas, ishda uzluksiz ta'lim tizimiga ta'limni differensiyalash prinsip va mexanizmlarini joriy etish kerak. Ta'limni differensiatsiyalash zamonaviy ta'lim tizimining asosiy

xususiyatlaridan biridir. U o'quvchi-talabalarning shaxsiy ehtiyojlari, layoqati, imkoniyatlari, qiziqishlari, kasb tanlashidan kelib chiqqan holda turli ko'rinishda bilim olish imkoniyatini beradi. O'quv-tarbiya jarayonida qatnashuvchi barcha subyektlarning o'zaro samarali ta'sirini ta'minlovchi mexanizmlar va shart-sharoitlarni yuzaga keltirish zarur. Umuman olganda, ushbu tizimning barcha tarkibiy qismlari - oila, uzluksiz ta'lim, mahalla, jamoat birlashmalari, jamg'armalar mavjud. Biroq, birinchidan, ularning o'z ichidagi samaradorlik faoliyatini ko'tarish, ikkinchidan, samarali ta'sirchanlik, ya'ni uzviyligi, bir-biriga chambarchas bog'liqligidan kelib chiqib ularning faoliyatini takomillashtirish lozim.

Hozirgi kllndajuda ko'p metodist va pedagog olimlar ("Zamonaviy pedagogik texnologiyalar" talaba-o'quvchilarga ta'lim-tarbiya berishda ko'zlangan maqsadga erishishni to'la kafolatlaydi. deb qaralmoqda. To'g'ri, zamonaviy texnologiyalar yordamida ishlab ehiqarishda boshqaruvehidan katta kueh talab qilinmaydi. Maxsus texnologiyaning o'zi qo'yilgan maqsadga to'la erishishni kafolatlaydi. Ammo bu nazariyani pedagogik texnologiyada to'laligicha qabul qilib bo'lmaydi, chunki bunda obyekt shaxs bo'lib, uning ongi taklif qilinayotgan texnologiyani to'laligicha qabul qila olmaydi, aksincha uni inkor qilishi mumkin. Shuning uehun ham zamonaviy pedagogik texnologiyalarni ta'limjarayoniga kiritishda uning boshqamvchisi bo'lgan pedagog ko'zlangan maqsadga erishishning bosh kafolatchisi bo'ladi.

Xulosa qilib aytganda Respublikada shaxs manfaati va ta'lim ustuvorligi e'tirof etilgan bir davrda pedagogika fani erkin shaxsni shakllantirish qonuniyatlari, yoshlar shaxsini hayotga moslashtirishning shakl va metodlari, mazmuni va prinsiplarini o'rganadi. Endilikda pedagogika o'z predmeti, fanlar bilan aloqasi, pedagogik bilimlar tizimi va ularning mantiqiy tuzilmasi, nazariy pedagogik bilimlarni tarbiyaga, ta'lim amaliyotiga qo'llash masalalariga doir muammolarni qaytadan yangicha talqinda qo'ymoqda. Demak, pedagogikada tadqiqotlarning dolzarbligi, bir tomondan, jamiyat ehtiyoji - o'quv-tarbiya tizimini yanada rivojlantirish bilan, boshqa tomondan esa, pedagogik bilimlarning yangilanish va rivojlanish darajasi bilan belgilanar ekan.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. *O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi.* - Toshkent: O'zbekiston, 1992.
2. *O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni.* //Barkamol avlod - O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. - Toshkent: Sharq, 1997.
3. *Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi.* //Barkamol avlod - O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. - Toshkent: Sharq, 1997.
4. *Azizxo Jaeva N N Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat.* - Toshkent: TOPU, 2003.
5. *Bahriyev A., Bahriyeva N. Yangi pedagogik texnologiyalar orqali o'qitishda ichki motivatsiyani shakllantirish.* / "Xalq ta'limi" jurnali, 2006, NQ .

6. Jumaev A. Bo'lajak o'qituvchi shaxsining ijtimoiy faollik omillari. / "Xalq ta'limi" jurnali, 2006, NQ.
7. EeCnaJIKO B.ll. Oe)l.aronrKa M nporepccMBHble TeXHOJIONn-t obyqeHM5I. - M.: 113)1.-BO IIHcTlrrYTa npo\$eccMOHaJIbHO O obpa30BaHHH MMHMCTepCTBa obpa30BaHM5I POCCMM, 1995.
8. Og'ayev S. Yangi pedagogik texnologiya-hayotiy ehtiyoj. / "Xa)q ta'limi" jurnali, 2001, NQ 3. -69-7 L b